

**O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining korrupsiya faktlariga
doir murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari haqidagi 2024 yil I-chorak uchun
HISOBOT**

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi murojaatlar bilan ishslash bo‘limi 2024 yil I-chorak davomida Respublika bo‘yicha kelib tushgan murojaatlar taxlil qilindi.

Shunga ko‘ra, Agentlikning markaziy apparatiga-**187 ta** (*Edo ijro tizimi orqali*),

“Yoshlar portali” elektron platformasiga-22 ta (*bot.yoshlarportali.uz*), **1093 qisqa raqami orqali-418.000 ta**, «**Telegram**», «**Fasebook**», «**Instagram**» ijtimoiy tarmoqlar orqali - **148 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Eng ko‘p murojaat hududlar kesimida, Qashqadaryo viloyati (**285 ta**), Samarqand viloyati (**247 ta**), Jizzax viloyati (**199 ta**), Surxondaryo viloyati (**1 ta**) va Farg‘ona viloyati (**105 ta**) ni tashkil etmoqda.

2024 yil I-chorak davomida eng ko‘p ko‘tarilgan masalalar asosan: "**Yoshlar daftari**" dasturiga oid (**396 ta**); "**Yoshlar daftari**"ga kiritish (**216 ta**); Ta’lim kontrakt to‘loviga moddiy yordam (**196 ta**); "**Yoshlar daftari**"ga kiritilgan fuqaroga yordam ko‘rsatish (**105 ta**); Oliy ta’lim kontrakt to‘loviga oid muammolar (moddiy yordamdan tashqari) (**92 ta**); Muhtojlarga bir martalik moddiy yordam (**87 ta**); Davolanish va jarrohlik amaliyoti uchun moddiy yordam (mamlakat ichida) (**66 ta**) ni tashkil etmoqda.

Ko‘rib chiqilgan murojaatlarning **81 %** ijobiy hal etilgan (*o‘tgan yilning mos davrida 72 % bo‘lgan*).

Yuqoridaagi yo‘nalishlar va korrupsiya haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa kanallari orqali korrupsiya faktlariga doir murojaatlar kelib tushmagan.

**Korrupsiyaga qarshi komplaens
Nazorati bo‘yicha bosh mutaxassis**

D.Aralov

**Murojaatlar bilan ishslash
bo‘limi boshlig‘i**

S.Abdixafizov